**Aniq va tabiiy fanalr fakulteti Umumiy kimyo va kimyoviy texnologiyalar kafedrasi professor o`qituvchilari va tyutori K.Sohibova ishtirokida 1-sonli TTJda o'tkazilgan navbatchilik yig'ilish**

**BAYONNOMASI**

**2025 yil 12 mart** **Denov tumani**

**Qatnashdilar:** Kafedraning barcha professor o'qituvchilari va 1-sonli Talabalar turar joyida istiqomat qilayotgan talaba qizlari.

**Kun tartibi:**

1. **Talabalar turar joyining tartib qoidalari va odob-axloq qoidalariga rioya qilish.**
2. **Talabalar turar joyi xonalari va maishiy xizmat ko'rsatish xonalari tozaligini saqlash.**

Institut Talabalar turar joyi ichki tartib qoidalari nizomi, "Talabalar turar joyi" to'g'risidagi nizom, TTJ "Talabalar kengashi" ish rejasi asosida faoliyati yuzasidan Aniq va tabiy fanlar fakulteti tyutori K. Sohibova va Umumiy kimyo va kimyoviy texnologiyalar kafedrasi o'qitu vchisi G. Ruziboyevalar tomonidan talaba qizlarga tushuntirish ishlari olib borildi. Hujjatlarning barchasi universitet rahbariyati tomonidan tasdiqlangan va Talabalar turar joyida mavjud barcha xonalar qattiq va yumshoq krovat, mebel, xona jihozlari (ko'rpa-to'shak, jildlar) bilan ta'minlanganligi va imkoniyatlardan unumli va tartibli foydalanishlari to'g'risida ham tushuncha berib o'tildi.

Shuningdek, o'quv zali, ma'naviyat va ma'rifat xonasi tibbiyot hamda tarbiyachilar xonalari "Talabalar turar joyi" ning barcha qavatlarida joylashgan Oshxona, hojatxona, yuvinish xonasi, dushlarning toza ozodaligini saqlashlarini ham ta'kidlab o'tdildi.

Talabalar turar joyida yashovchi talabalarni bo'sh vaqtini mazmunli tashkil etishga qaratilgan davra suhbati o'tkazildi. Talabalar bilan uchrashuvda institutning talabalar turar joyini xar bir qavat va xonalarni ko'zdan kechirib talabalar bilan hamda turar joy sharoiti bilan yaqindan tanishdi. Talabalar o'zlari turar joydagi sharoit va joriy ta'mirlash ishlari nixoyasiga yetganligi bilan tanishtirishdi. So'ng 3-qavat Kimyo yo'nalishi talabalari bilan individual tartibda suxbat tashkil etildi va suhbatida qanday qilib talabalar bo'sh vaqtini samarali tashkil etishni tushuntirib berildi.

Ya'ni talaba o'qishdan kelgandan so'ng birinchi navbatda qavat va o'z xonasini tozaligiga e'tibor berib keyin qolgan vaqtini professor-o'qituvchilar tomonidan berilgan vazifalarni bajarishni va talabalar turar joyidagi tashkil etilgan to'garaklarda o'tkazish zarurligini tushuntirib o'tildi. Hamda kunlik vaqt me'yorlarini va rejalarni to'g'ri taqsimlash kerakligini aytildi.

Kun tartibidagi masalalar bo'yicha berilgan tavsiyalar, bildirilgan taklif va fikr-

mulohazalar asosida

**QAROR QILADI:**

1. Kun tartibidagi masala bo'yicha Tyutor K.Sohibova ma'ruzalari ma'lumot va iiro uchun qabul qilinsin.

3. Ushbu qarorining bajarilishini ta'minlash va nazorat qilish Tyutor **K.Sohibova** zimmasiga yuklatilsin.

**Umumiy kimyo va kimyoviy texnologiyalar kafedrasi mudiri:** **S.Sh. Ismatov**

**Guruh rahbari:** **K. Sohibova**

**Kotiba:** **X.X. Kulbosheva**



